

NEMIS FRAZEOGRAFIK TADQIQOTLARI TARIXIGA DOIR

Azamov Omadjon Burxonovich

f.f.f.d(PhD), dotsent

Nemis tili nazariyasi va amaliyoti kafedrası mudiri

Andijon davlat chet tillari instituti

Email: azamovomadjon@gmail.com

Emily Amanda Ates

Osnabruk (Germaniya) universiteti germanistika

va islomshunoslik yo'nalishi magistranti

Email: emily.amanda.lam@icloud.com

Annotatsiya: mazkur maqolada nemis frazeologik lug'atshunoslik taraqqiyotining uch asosiy bosqichi va sohada qilingan amaliy ishlar tarixi borasida fikrlar berilgan

Kalit so'zlar: frazeografiya, frazeografik lug'atshunoslik, frazema, lug'at maqolasi, ibora, idioma

Abstract: in this article are given ideas about the three main stages of the development of German phraseological lexicology and the history of practical work in the field are given.

Key words: phraseography, phraseological lexicology, idiom, dictionary article, phrase, idiom

G'arb tilshunoslarining turg'un so'z birikmalari tabiatini nazariy jixatdan ilmiy tadqiq qilishi uzoq tarixga ega bo'lmasada, amaliy jixatdan, ya'ni turli to'plamlar, ma'lumotlar hamda lu'g'atlar tuzish bo'yicha boy tajriba va tarixga ega. Bu nuqtai nazardan nemis tili lug'atshunosligini alohida ta'kidlash lozim.

Sohani atroflichi tadqiq etgan, yetuk o'zbek tilshunos olimi professor M.I. Umarxodjeyev nemis frazeografiyasini uch bosqichga bo'lishni tavsiya etadi. Birinchi bosqichda qadimgi qo'lyozma maqol- matallar, turli tuman hikmatli so'zlar bitilgan turli ko'rinishdagi XIX asrga qadar bo'lgan to'plamlarni kiritadi. Ikkinchi bosqichga XIX asrdan XX asrning birinchi yarimigacha bo'lgan davrda chop etilgan turli manbalarni kiritgan bolsa uchinchi bosqich esa XX asrning ikkinchi yarimidan boshlab hozirgi kungacha bo'lgan barcha ilmiy-amaliy manbalarni, tadqiqotlarni qamrab oladi. Ba'zi bir bibliografik ma'lumotlarga asosan nemis tilidagi nemis va lotin tillari maqollari to'plamiga roxib Notker Labeo (952- 1022) tomonidan ilk bora tartib berilganligi ta'kidlab o'tilgan. O'rta asrlarga kelib nemis tilida "Apophtegmata" (aqilli, o'tkir iboralar) nomi dilan maqol- matallar qatorida turli- xil iboralar to'plamlari tuzila boshlandi.

Frans Passivnil 1841 yilda tuzgan "Handwörterbuch der griechischen Sprache" (Grek tilining qo'llanma lug'ati) lug'atida "Apophtegmata" atamasiga quyidagicha ta'rif beradi: A'pophyno, to Ausspruch, Orakelspruch, jede kluge, witzige, sentenzartige Rede oder Antwort, Gedenkenspruch".

Ushbu bosqichning e'tiborli tomonlaridan biri, ilk bora nemis tili maqol va matallari ilmiy tadqiqotlar ob'ektiga aylandi. Maqol va matallar strukturasi hamda semantik xususiyatlari ilk o'rganila boshlandi. Ushbu o'rinda nemis yozuvchisi, nazariyotchi- filolog Yu.G. Shottel tomonidan 1663 yilda Braunshvaygda e'lon qilingan „Ausführliche Arbeit von der Teutschen Haupt Sprache“ nomli ko'p tomli kitobini tilga olish shart. U beshinchi kitobida 1230 ta maqol hamda 560 ta matallarni talqin qilish bilan birga iste'molga "Sprichwörtliche Redensarten" (maqolsimon iboralar) terminini kiritganligi alohida taqsiinga sazovordir. Ushbu atama keyinroq chop etilgan lug'atlarda maqol va matallarni farqlash maqsadida keng qo'llanib kelindi. Masalan, 1797 yilda Nyurenbergda A. Shellxorn tomonidan chop etilgan "Teutsche Sprichwörter, Sprichwörtliche Redensarten und Denksprüche, gesammelt und motivierten Erklärungen begleitet" lug'atida, lug'atning nomida ko'rsatilganiday maqollar, matallar va hikmatli so'zlar bir-

birlaridan ajratilgan xolda taqdim etilgan. Bularning hammasi lugʻat mualliflari tomonidan asta-sekin turli turgʻun soʻz birikmalarining bir- birlaridan farqli xususiyatlariga eʼtibor qaratganligidan dalolat beradi. Lekin ushbu birinchi bosqichda bizning tasavvurimizdagi frazeologik lugʻatlarga hanuz tartib solinmagan. Mazkur ishlarda lugʻatga olingan turgʻun birliklarni lingvistik hamda leksikografik parametrlari deyarli yoʻq, lugʻatlarga tasodifiy, koʻproq ogʻzaki nutqda qoʻllaniladigan birliklar kiritilgan.

Ikkinchi bosqichda, yaʼni XIX asr va XX asrning birinchi yarimida turgʻun soʻz birikmalarga bagʻishlangan lugʻatlar ham son jixatdan, ham sifat jixatdan kengayib bordi. Maqol va matallarni oʻz ichiga olgan lugʻatlar qatorida hikmatli soʻzlar, idiomatik iboralarni izoxlovchi lugʻatlar paydo boʻla boshladi. Masalan, V. Korts tomonidan 1837 yil Leptsigda yaratilgan „Die Sprichwörter und sprichwörtliche Redensarten des Deutschen“ lugʻati, Yu. Aynslayn tomonidan 1840 yil Frankfurtida eʼlon qilingan „die Sprichwörter und Sinnreden des deutschen Volkes in alter und neuer Zeit“ lugʻatini tilga olish mumkin. Mualliflarning yozishicha barcha iboralar ilk bora turli banbalardan olingan boʻlib, ular izoxlanib berilgan.

R. Treppler muallifligidagi “6275 deutsche Sprichwörter und Redensarten” nomli lugʻat 1884 yil Myunxenda nashr qilingan. Bu kabi lugʻatlarning soni yil sayin koʻpayib bordi. Bu davrga kelib lugʻatlarda kirish soʻzlari hamyozila boshlandi. Soʻzboshlarda lugʻatga olingan iboralarga ilmiy izoxlar berish bilan bir qatorda lugʻatlarning maqsad va vazifalari ham koʻrsatib oʻtiladi. Provvard natijada turli frazeologik loʻgʻatlarga tartib berildi. Maxsus “Geflügelte Worte” (qanotli soʻzlar- hikmatli soʻzlar) nomi bilan lugʻatlar shakillandi. Masalan, G. Buxmann tomonidan 1864 yil Berlinda 3800 ga yaqin “qanotli soʻzlar” ni oʻz ichiga olgan “Geflügelte Worte” lugʻati chop etildi. Ushbu lugʻat bir necha marotaba qayta nashr etildi va maʼlum darajada boshqa tillarda ham shu kabi lugʻatlarni shakillanishiga turtki berdi.

Nemis tilida bu davrga kelib biz tasavvur qilgan frazeologik lugʻat shakillana boshladi. Bunday lugʻatlarning nomi “Sprichwörtliche Redensarten” deb nomlanib, ularning qamroviga olingan turgʻun soʻz birikmalari faqat registratsiya qilinibgina qolmasdan ularning mazmun- mohiyati, kelib chiqish-etimologiyasi izoxlana boladi. Ushbu oʻrinda Yu.V. Barxordning 1888 yildagi “Die sprichwörtlichen Redensarten im deutschen Volksmund” (ikkinchi nashri 1894 y.) lugʻatini alohida taʼkidlash lozim. S. Berel tomonidan 1896 yil Leyptsigda chop etilgan “Wie der Deutsche spricht. Phraseologie Volkstümlicher Sprache. Aussprache Redensarten, Sprichwörter und Zitate, Ausdrücke Volksmunde und den Werken der Volksschriftsteller gesammelt und erläutert” lugʻati tom maʼnoda nafaqat Germaniyada, balkim dunyoda zamonaviy frazeologik lugʻatlar tuzishga dastlabki mayoq vazfasini oʻtadi desak xato qilmagan boʻlamiz.

XX asrning dastlabki yillarida bir tilli lugʻatlar qatorida, ikki va koʻp tilli lugʻatlarga tartib berila boshlandi. Misol tariqasida nemis, ingliz, frantsuz hamda italyan tillari turgʻun soʻz birikmalari lugʻatini eslab oʻtish joiz. 1931 yilda Nyurnbergda F. Munker tomonidan tuzilgan “Die Sprache des Alltags. Moderne feststehende Redewendungen im Deutschen und ihre Äquivalente in fremden Sprachen (Französisch, Spanisch u.a.)” hamda E. Xerd tomonidan tuzilgan “Deutsche Sprichwörter im Spiegel fremder Sprachen. Unter Berücksichtigung des Englischen, Französischen, Italienischen, Lateinischen und Spanischen. Berlin- Leipzig 1933” lugʻatlari shular jumlasidandir.

Zamonaviy frazeologiya hamda frazeografiyani ilmiy- amaliy tadqiqi tom maʼnoda uchinchi bosqichdan boshlanadi. Yuqorida taʼkidlab oʻtilgan frazeolog olim V.V. Vinogradovning frazeologik tadqiqi Ikkinchi Jahan Urushidan keyin ham nazariy frazeologiyani, ham amaliy frazeologiyani keng miqyosda rivoj topishiga katta taʼsir oʻtkazdi. Bu davrga kelib nemis tili frazeologik lugʻatlarining bir tilli va ikki tilli ilmiy asoslangan turlari chop etila boshladi.

1956 yil Moskvada L.E. Binovich tomonidan chop etilgan “Немецко- русского фразеологический словарь” lugʻati zamonaviy ikki tilli frazeologik lugʻatlarni shakillanishida namuna va keyingi lugʻatlarga moydevor manba vazifasini oʻtab berdi. Shunga qaramasdan ushbu lugʻatda qator kamchiliklar

borligi nemis tilshunos olimi Marta Zender hamda professor Umarxodjaev M.I. lar tomonidan yozilgan retsenziyalarda ko'rsatib o'tilgan . Retsezentlarning ta'kidlashicha lug'atga bir qator hozirgi zamonda iste'moldan chiqqan iboralar olingan, masalan:

„Weder A noch B von etwas wissen“

„Apfel braten“

„Einen Apfelzahn haben“

„Goldener Apfel in silbernen Schalen,„

Shu bilan birga bir qator frazeologizmlarni ma'nolari notug'ri tarjima qilingan, masalan:

“ab dafür” iborasi “договорилис” deb tarjima qilingan, aslida uning ma'nosi og'zaki nutqda “fort!”, ya'ni “ko'zdan yuqol!”.

Lekin shuni ham ta'kidlash

lozimki, ushbu ko'rsatilgan barcha kamchiliklar 1975 yilda nemis lug'atshunosi U.M. Klappenbax hamda rus leksikografi N.G. Grishinlar hamkorligida chop etilgan lug'atning ikkinchi nashrida bartaraf etilgan. O'sha yillari Germaniyada ilmiy asoslangan, zamonaviy lingvistik hamda leksikografik parametrlar mukammal ishlangan. Nemis tilining izoxli idiomalar lug'ati 1966 yil Myunxenda W. Friderich tomonidan „Moderne deutsche Idiomatik“ nomi bilan chop etilgan. Frazeografiya tarixida ilk bor 8000 frazeologik iboralar 29 ta tematik guruhda berilib, guruhga tushmagan iboralar alohida “umumiy iboralar” nomi bilan 30- guruhda berildi. 1973 yil Frayburgda A. Ro'rixning (L. Röhrich. Lexikon der Sprichwörtlichen Redensarten) lug'ati o'z ichiga 10000 dan ortiq nemischa iboralarni qamrab olib, nemis tilining tom ma'nodagi izoxli lug'atiga aylandi. Keying yillarda frazeologik lug'atlarga ilmiy- amaliy frazeologik tahlillar va tasniflar ham lug'at maqolalarida ilova qilish boshlandi. Bunga misol tariqasida R. Klappenbaxning 1961 yil Halle (Zaale) shahrida “Feste Verbindungen in der deutschen Gegenwartssprache” hamda Leyptsig shahrida 1968 yilda chop etilgan “Probleme der Phraseologie” hamda Karlhaym Danielsning “Neue Aspekte zum Thema Phraseologieforschung in der gegenwärtigen Sprachforschung”, va taniqli lug'atshunos E. Agrikolaning “Wörter und Wendungen” nomli lug'atiga yozilgan “Einführung in die Probleme der Redewendungen” nomli so'z boshisini keltirish mumkin. Ushbu ilmiy maqolalarda frazeologiya masalalariga yangicha yondashish, ularni boshqa til birliklaridan farqlash, ularning qo'llanish ko'lami va boshqa qator semantik hamda struktural masalalari tadqiq qilingan. Tadqiqotlarda sobiq ittifoq frazeologik konsepsiyasining sezilarli ta'sirini ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda frazeologik lug'atshunoslikning ushbu uch asosiy davrida qilingan ilmiy- amaliy tahlillar sohaning hozirgi rivojiga tamal toshi sifatida xizmat qilmoqda, endilkda yosh frazeolog olimlarning vazifasi sohani rivojlantirish, iboralarning o'ziga xos muammoli tomonlariniga aniqlik kiritish va ularni hal qilish choralarini ilmiy- amaliy tadqiq qilishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR

1. М.И. Умарходжаев. Основы фразеологии. Диссертация как соискание уч.степен доктора филологических наук. Москва 1980. 105 б.
2. М.И. Умарходжаев. “ОЧЕРКИ ПО СОВРЕМЕННОЙ ФРАЗЕОГРАФИИ”. Изд-во “Фан” Т., 1972.
3. AO Burkhanovich COMMON ZOONYMS AND THEIR LEXICAL-SEMANTIC CHARACTERISTICS (EXAMPLE OF UZBEKI AND GERMAN LANGUAGES). International Multidisciplinary Journal for Research and Development, 2023/11/2.
4. IN Xudaberdievna. STRUCTURAL AND SEMANTIC FEATURES OF GERMAN YOUTH SLANG. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research 10 (10), 285-288.
5. Mamatov, GM Bozorova RR. "IMPLEMENTATION OF THE EDUCATION SYSTEM OF EUROPEAN COUNTRIES." Innovations in Technology and Science Education 3.19 (2024): 135-139.

6. Muxtarovna, Q. N. (2022). COMPLIMENT WORDS IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES: MEANS OF EXPRESSION AND FUNCTIONAL TYPES. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.6 Philological sciences).
7. Ismanova, O. (2023). NEMIS VA OZBEK TILLAR KESIMIDA TARJIMONNING TARJIMADA LEKSIK SINONIMLARDAN TANLAB FOYDALANISH USLUBLARI. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(11 Part 2), 157-160.
8. Bozorova, G. M., Mamatov, R. R., Adaxamjonov, A. A., & Jaloldinov, M. S. (2024). THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS. Science and innovation, 3(Special Issue 19), 352-354.
9. MO Urunbayevna, FRAZEOLOGIK TUSHUNCHALAR VA ULARNING TILIMIZDA QO 'LLANISHI. Journal of new century innovations, 50(2). 19-21 2024.
10. Jurayev Azuzbek Anvarovich. A BRIEF HISTORY OF GERMAN LITERATURE// INNOVATION IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION, VOLUME 2 ISSUE 16,ISSN 2171-381X, SJIF 2023.5.305.